

Eldor Aripov: «O‘zbekiston va Turkiya munosabatlari sifat jihatidan yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi»



Bugun poytaxtimizda «O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi raisligi va O‘zbekiston-Turkiya munosabatlarining istiqbollari» mavzusida davra suhbatlari boshlandi.

Tadbir «Taraqqiyot strategiyasi» markazi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI) tomonidan Turkiyaning “Marmara Group” strategik va ijtimoiy tadqiqotlar fondi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Anjumanda so‘zga chiqqan SMTI direktori Eldor Aripov O‘zbekiston-Turkiya o‘rtasidagi Strategik hamkorlikning bugungi holati va istiqbollariga alohida e‘tibor qaratdi.

Uning ta’kidlashicha, joriy yilda O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida rasmiy diplomatik aloqalar o‘rnatilganligiga 30 yil to‘ldi. «Mazkur davr mobaynida ikki tomonlama munosabatlarimiz sifat jihatidan yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi va o‘zaro manfaatli hamkorligimizning yangi istiqbollari ochilmoqda», dedi SMTI rahbari.



Eldor Aripov soʻzlariga koʻra, strategik siyosiy aloqalar mavqeyining jadal rivojlanishida, hech shubhasiz, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogʻanning ulkan hissassi mavjud.

"Prezidentlarimizning tashabbuslari bilan ikki davlat munosabatlari tizimida yangi muloqot formati – oliy darajadagi Oʻzbekiston-Turkiya strategik hamkorlik kengashi tuzilganligini va bugunda samarali faoliyat yuritayotganini keltirishim mumkin", deydi mutaxassis.

Shu bilan birga, joriy yilning mart oyida Toshkentda boʻlib oʻtgan Strategik hamkorlik kengashining ikkinchi yigʻilishi yakuni boʻyicha 10 ta hujjat, shu jumladan, imtiyozli savdo, mudofaa va sud-huquq sohalarida hamkorlik borasidagi muhim bitimlar imzolandi.

"Shuningdek, Oʻzbekiston va Turkiya rahbarlari ikki davlat oʻrtasidagi munosabatlar maqomini «keng qamrovli strategik sheriklik» bosqichiga koʻtarishga kelishib oldilar", deya qoʻshimcha qildi SMTI rahbari.

«Siyosiy aloqalarning jadalligi savdo-iqtisodiy hamkorlik dinamikasini oshirishga yordam berdi. Jumladan, keyingi yillarda oʻzaro tovar ayirboshlash 2,5 barobarga oʻsib, 3,6 milliard dollardan oshdi. Qoʻshma korxonalar soni 5 barobar koʻpayib, 2 mingdan ortdi. Investitsiyaviy hamkorlik koʻrsatkichlari 70 barobarga oʻsdi», deya soʻzini yakunladi Eldor Aripov.

Manba